

MENING SOHAMDAGI IZ QOLDIRGAN ALLOMA

Abdunazarova Nigora

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abu Nasr al-Farobiyning ilmiy faoliyati va uning falsafa, mantiq hamda jamiyat rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Unda allomaning asosiy asarlari, xususan, “Fozil odamlar shahri” asarining mazmuni ochib berilib, uning ilmiy qarashlarining zamonaviy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Farobiy, falsafa, mantiq, “Fozil odamlar shahri”, jamiyat, axloq, ilm-fan, Sharq uyg‘onishi, tafakkur, siyosiy qarashlar.

Kirish: Men ilm-fan tarixida muhim o‘rin egallagan allomalardan biri sifatida Abu Nasr al-Farobiyini tanladim. U Sharq uyg‘onish davrining yirik namoyandasi bo‘lib, falsafa, mantiq, musiqa, matematika va siyosatshunoslik kabi ko‘plab fan sohalarida samarali ijod qilgan buyuk mutafakkir hisoblanadi.

Farobiy ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri bo‘lib, ayniqsa falsafa va mantiq ilmini yangi bosqichga olib chiqqan. U Aristotelning ilmiy merosini chuqur o‘rganib, uni Sharq falsafasi bilan uyg‘unlashtirgan.

Asosiy qism: Abu Nasr al-Farobiyning kelib chiqishi va nasabiga oid ma’lumotlarda turli qarama-qarshiliklar mavjud. Bu esa uning hayoti haqida aniq va ishonchli ma’lumotlar o‘z davrida yoki undan keyin yashagan kishilar tomonidan to‘liq qayd etilmaganini ko‘rsatadi. Aksariyat ma’lumotlar aniq dalillarga emas, balki taxmin va rivoyatlarga asoslangan bo‘lib, bu holat boshqa ko‘plab o‘rta asr allomalari hayotiga ham xosdir. Uning hayoti haqida ma’lumotlar juda kam bo‘lib, dastlabki manbalar sifatida allomaning o‘ziga tegishli avtobiografik parchalar hamda Al-Masudi, Ibn al-Nadim va Ibn Hashqalning qisqa yozuvlari keltiriladi. Shuningdek, Said al-Andalusi uning hayoti haqida maxsus tarjimai hol yozgan. Shu sababli XII–XIII asr arab biograflari Farobiy haqida juda oz faktlarga ega bo‘lgan va ko‘pincha uning hayotini tasvirlashda turli rivoyatlarga tayanishga majbur bo‘lganlar.

Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, Farobiy Bag‘dodda yashab, u yerda suriyalik nasroniy olimlar - ruhoniylar Yuhanna ibn Haylan, Yahyo ibn Adi va Abu Ishoq Ibrohim

al-Bag‘dodiy bilan ilmiy faoliyat olib borgan. Keyinchalik u Damashqda ham yashagan va oxir-oqibat Damashqda 950–951-yillarda vafot etgan.

Men ushbu alloma - Abu Nasr al-Farobiyni tanlashimning asosiy sababi, uning ilm-fan, ayniqsa falsafa va mantiq sohalariga qo‘shgan ulkan hissasi bilan bog‘liqdir. Farobiy inson tafakkurini rivojlantirish, to‘g‘ri fikrlash va ilmiy xulosa chiqarish masalalarini chuqur o‘rgangan olim sifatida meni juda qiziqtirdi.

Yana bir muhim sabab - uning ilmiy qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolganidir. Farobiy jamiyatni boshqarish, adolatli tuzum yaratish va inson kamoloti haqida ilgari surgan g‘oyalari hozirgi zamon uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, uning “Fozil odamlar shahri” asarida ilgari surilgan fikrlar meni chuqur o‘ylantirdi.

Allomaning eng mashhur asarlaridan biri “Fozil odamlar shahri” bo‘lib, unda ideal jamiyat, adolatli boshqaruv, axloqiy yetuklik va inson kamoloti masalalari keng yoritilgan. Farobiy fikricha, jamiyat taraqqiyoti ilmi, axloqli va dono insonlarga bog‘liqdir.

Bundan tashqari, u mantiq fanini rivojlantirishda ham katta xizmat qilgan. Uning ilmiy ishlari tafakkur madaniyatini shakllantirish, to‘g‘ri fikrlash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Farobiy ilmni inson kamolotining asosiy vositasi deb bilgan.

Xulosa: Farobiy mening sohamda muhim iz qoldirgan allomalardan biri bo‘lib, uning ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr al-Farabi. *Fozil odamlar shahri*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1993. – 256 b.
2. Abu Nasr al-Farabi. *Ilmlar tasnifi*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2001. – 180 b.
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. *O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi*. 6-jild. – Toshkent, 2003. – 540 b.